

Navoiy viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2025-yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Navoiy viloyati, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 17 339,2 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 16 793,1 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 412,0 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 134,1 mlrd so'mni tashkil qildi.

Navoiy viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Xatirchi (4 988,1 mlrd so'm), Qiziltepa (3 355,0 mlrd so'm), Navbahor (2 725,4 mlrd so'm), Karmana (2 329,6 mlrd so'm), Nurota (1 683,3 mlrd so'm), Konimex (1 009,2 mlrd so'm), Tomdi (569,6 mlrd so'm) va Uchquduq (431,4 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga G'ozg'on shahri (103,9 mlrd so'm), Navoiy shahri (78,9 mlrd so'm) va Zarafshon shahrini (64,8 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.



	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati %
Navoiy viloyati	17 339,2	104,4
Navoiy shahri	64,8	100,5
Zarafshon shahri	78,9	101,4
G'ozg'on shahri	103,9	101,8
<i>tumanlari</i>		
Konimex tumani	1 009,2	105,7
Qiziltepa tumani	3 355,0	104,5
Navbahor tumani	2 725,4	104,5
Karmana tumani	2 329,6	103,9
Nurota tumani	1 683,3	103,2
Tomdi tumani	569,6	106,6
Uchquduq tumani	431,4	106,6
Xatirchi tumani	4 988,1	104,5

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Tomdi va Uchquduq (106,6 %), Konimex (105,7 %), Qiziltepa va Navbahor hamda Xatirchi (104,5 %), tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Karmana (103,9 %), Nurota (103,2 %), G'ozg'on shahri (101,8 %), Zarafshon shahri (101,4 %) va Navoiy (100,5 %) shaharlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 16 633,7 mlrd so'mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 104,3 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 4 762,6 mlrd so'mni (107,8 %), chorvachilik mahsulotlari 11 871,2 mlrd so'mni (102,5 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Xatirchi (4 717,6 mlrd so'm), Qiziltepa (3 222,4 mlrd so'm), Navbahor (2 623,3 mlrd so'm) va Karmana (2 227,8 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga G'ozg'on shahri (102,3 mlrd so'm), Zarafshon shahri (78,5 mlrd so'm) va Navoiy shahrini (53,3 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Navoiy shahri (107,2 %), Uchquduq (106,6 %), Tomdi (106,5 %), Konimex (105,3 %), Qiziltepa va Navbahor (104,4 %), tumanlarida qayd etildi. Xatirchi (104,2 %), Karmana (103,9 %), Nurota (103,1 %), Zarafshon va G'ozg'on shahri (101,9 %), tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 75,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 18,7 % i fermer xo'jaliklariga, 5,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari hajmi 4 762,6 mlrd so'mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 107,8 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Xatirchi (1 585,0 mlrd so'm), Qiziltepa (1 152,2 mlrd so'm), Navbahor (1 027,2 mlrd so'm), Karmana (549,9 mlrd so'm), Nurota (250,5 mlrd so'm), va Konimex (131,0 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Navoiy shahri (18,5 mlrd so'm), G'ozg'on shahri (3,0 mlrd so'm) va Zarafshon shaharini (0,2 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Qiziltepa (109,6%), Xatirchi (108,8 %), Karmana (107,7 %), Navoiy shahri va Navbahor (106,9 %), Konimex (106,4 %), tumanlarida qayd etildi. Nurota (99,7 %), G'ozg'on shahri (98,9 %) va Zarafshon (58,1 %), shahrilarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 285,4 ming tonna donli ekinlar (2024-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 17,2 % ga ko'p), 83,6 ming tonna kartoshka (89,8 % ga), 268,9 ming tonna sabzavotlar (96,1 % ga), 73,3 ming tonna poliz ekinlari (7,3 % ga ko'p), 95,2 ming tonna meva va rezavorlar (3,2 % ga ko'p), 76,8 ming tonna uzum (6,3 % ga ko'p) yetishtirildi.



Etishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari

	Yanvar-sentabr 2025-y.	O'sish sur'ati % da
Donli ekinlar, ming tonna.	285,4	117,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	216,0	103,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	54,1	2,6 b
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	15,3	110,7
Kartoshka, ming tonna.	83,6	89,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	14,1	110,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	69,0	86,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,5	115,6
Sabzavotlar, ming tonna.	268,9	96,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	49,8	114,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	206,7	91,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	12,4	110,5
Poliz ekinlari, ming tonna.	73,3	107,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	31,0	110,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	41,5	104,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,8	145,4
Meva va rezavorlar, ming tonna.	95,2	103,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	39,4	108,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	52,2	98,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3,6	124,1
Uzum, ming tonna.	76,8	106,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	26,5	111,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	40,9	102,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	9,4	111,7



2025-yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, donli ekinlar yetishtirishning 75,7 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 18,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

**2025-yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
dehqonchilik mahsulotlari (tonna)**

	<i>Donli ekinlar</i>	<i>Kartoshka</i>	<i>Sabzavotlar</i>
Navoiy viloyati	285 428	83 552	268 873
Navoiy shahri	-	280	1 859
Zarafshon shahri	-	-	19
G'ozg'on shahri	113	247	38
<i>tumanlari</i>			
Konimex tumani	13 576	2 025	7 153
Qiziltepa tumani	83 435	17 814	66 575
Navbahor tumani	63 468	16 497	58 570
Karmana tumani	35 065	9 663	41 916
Nurota tumani	6 099	6 556	10 920
Tomdi tumani	-	-	-
Uchquduq tumani	-	-	-
Xatirchi tumani	83 672	30 470	81 823

Shunga mos ravishda kartoshkaning 16,9 % i fermer xo'jaliklariga, 82,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, sabzavotlarning 18,5 % i fermer xo'jaliklariga, 76,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 4,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, poliz ekinlarining 42,3 % i fermer xo'jaliklariga, 56,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, meva va rezavorlarning 34,6 % i fermer xo'jaliklariga, 53,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 12,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, uzumning 40,9 % i fermer xo'jaliklariga, 58,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.



**2025-yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
dehqonchilik mahsulotlari (tonna)**

	<i>Poliz ekinlari</i>	<i>Meva va rezavorlar</i>	<i>Uzum</i>
Navoiy viloyati	73 340	95 191	76 819
Navoiy shahri	54	311	147
Zarafshon shahri	-	7	-
G'ozg'on shahri	65	134	14
<i>tumanlari</i>			
Konimex tumani	2 639	2 097	722
Qiziltepa tumani	20 025	17 198	10 073
Navbahor tumani	10 329	23 758	15 512
Karmana tumani	7 313	12 318	3 425
Nurota tumani	9 069	11 119	5 074
Tomdi tumani	-	-	-
Uchquduq tumani	-	-	-
Xatirchi tumani	23 846	28 248	41 854

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari hajmi 11 871,2 mlrd so'mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 102,5 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Xatirchi (3 132,6 mlrd so'm), Qiziltepa (2 070,6 mlrd so'm), Karmana (1 632,9 mlrd so'm), Navbahor (1 596,1 mlrd so'm) va Nurota (1 400,3 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga G'ozg'on shahri (99,3 mlrd so'm), Zarafshon shahri (78,3 mlrd so'm) va Navoiy shahrini (34,8 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Navoiy shahri (107,4 %), Uchquduq (106,6 %), Tomdi (106,5 %), Konimex (105,1 %), Nurota (104,0 %) tumanlarida qayd etildi. Navbahor(102,4 %), Karmana (102,3 %) Zarafshon shahri (102,1 %), G'ozg'on shahari (102,0 %), Xatirchi(101,2 %) va Qiziltepa (101,0 %), tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 150,0 ming tonna go'sht, 405,4 ming tonna sut, 371,7 mln dona tuxum, 322,7 ming dona qorako'l teri yetishtirildi va 5,6 ming tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,5 % ni, sog'ib olingan sut – 100,2 % ni, olingan tuxum – 103,5 % ni, olingan qorako'l teri – 104,1 % ni hamda ovlangan baliqlar – 112,6 % ni tashkil qildi.



**2025-yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-sentabr 2025-y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna.	150,0	102,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	11,9	114,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	127,6	100,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	10,5	114,0
Sut, ming tonna.	405,4	100,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	32,5	110,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	364,1	100,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	8,8	114,4
Tuxum, mln. dona.	371,7	103,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	48,3	110,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	231,7	100,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	91,7	107,6
Jun, tonna.	4 493,0	103,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	925	106,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 968	101,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	600	112,1
Baliq, ming tonna	5,6	112,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1,8	107,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	0,5	106,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3,3	116,7

2025-yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 7,9 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 85,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 7,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.



Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 8,0 % i fermer xo'jaliklari, 89,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 2,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, olingan tuxumning 13,0 % i fermer xo'jaliklariga, 62,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 24,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 15,7 % i fermer xo'jaliklariga, 71,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 12,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 32,6 % i fermer xo'jaliklariga, 9,5% i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 57,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

**2025-yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik
mahsulotlari va ovlangan baliqlar (tonna)**

	Go'sht (tirik vaznda)	Sut	Tuxum, ming dona	Baliq
Navoiy viloyati	149 999	405 374	371 744	5 573
Navoiy shahri	408	1 509	4 014	54
Zarafshon shahri	1 108	1 250	3 813	-
G'ozg'on shahri	1 487	1 709	1 079	-
<i>tumanlari</i>				
Konimex tumani	12 507	14 259	7 197	610
Qiziltepa tumani	24 714	82 872	95 258	1 593
Navbahor tumani	19 255	62 281	35 741	1 360
Karmana tumani	20 036	57 264	115 470	1 079
Nurota tumani	19 598	30 644	17 601	33
Tomdi tumani	8 799	3 180	1 674	-
Uchquduq tumani	6 414	5 133	769	-
Xatirchi tumani	35 674	145 274	89 127	844



IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2025-yilning 1-oktabr holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 539,2 ming boshga yetdi, (2024-yilning 1-oktabr holatiga nisbatan 1,4 % ga ko'p), sigirlar 216,3 ming boshga (0,6 % ga ko'p), qo'y va echkilar 2 601,7 ming boshga (1,1 % ga ko'p), parrandalar 4 097,2 ming boshga (3,3 % ga ko'p) yetdi.

2025-yilning 1-oktabr holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	539,2	101,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	51,9	104,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	470,0	100,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	17,3	109,5
shundan sigirlar	216,3	100,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	18,7	109,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	192,8	99,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	4,8	109,1
Qo'y va echkilar	2 601,7	101,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	724,8	102,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 470,5	100,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	406,4	100,0
Otlar	24,9	103,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	10,4	105,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	12,2	100,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,3	105,7
Parrandalar	4 097,2	103,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	491,6	103,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 140,3	100,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 465,3	107,7



2025-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 9,6 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 87,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 8,6 % i fermer xo'jaliklariga, 89,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 27,9 % i fermer xo'jaliklariga, 56,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 15,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 12,0 % i fermer xo'jaliklariga, 52,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 35,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

2025-yilning 1-oktabr holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni (ming bosh)

	Yirik shoxli qoramollar	shunda, sigirlar	Qo'y va echkilar	Parranda lar
Navoiy viloyati	539,2	216,3	2 600,9	4 097,2
Navoiy shahri	2,1	0,8	6,6	55,5
Zarafshon shahri	1,3	0,5	10,3	56,6
G'ozg'on shahri	2,9	1,3	27,8	9,5
<i>tumanlari</i>				
Konimex tumani	26,6	12,3	604,6	174,4
Qiziltepa tumani	148,6	45,9	255,7	959,2
Navbahor tumani	82,6	30,6	297,8	456,9
Karmana tumani	65,2	25,1	141,1	995,8
Nurota tumani	47,1	22,0	461,8	174,0
Tomdi tumani	6,3	2,2	374,4	60,7
Uchquduq tumani	6,7	3,0	163,7	30,8
Xatirchi tumani	149,7	72,5	257,2	1 094,2

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.



Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
S. Tuyg'unov
79 223-23-40 (8610)

Manzil:

